



Yeshimbetova
Shahnoza

O'zbekiston Fanlar
Akademiyasi
Tarix instituti mustaqil
izlanuvchisi

ORCID ID: 0009-0009-6266-755X



QORAQALPOQ BALIQCHILIK TARIXIGA OID MA'LUMOTLAR



“

Annotatsiya: Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqining baliqchilik bilan bog'liq tarixi, ularning xo'jaligi, Orol dengizida suv sathi kamayishining aholi hayotiga ta'siri, qoraqalpoq xalqining baliqchilik xo'jaligi an'analarini saqlab qolganligi bilan bog'liq tarixiy jarayonlar aks etgan.

Аннотация: В этой статье отражена история каракалпакского народа, связанная с рыболовством, его хозяйством, влияние снижения уровня воды в Аральском море на жизнь населения, сохранение связанная с рыболовных традиций каракалпакского народа.

Annotation: This article reflects the history of the Karakalpak people's life related to fishing, their economy, the impact of the decrease in the water level in the Aral Sea on the life of the population, and also historical stages about the preservation of the fishing traditions of the Karakalpak people.

”

Kirish

Respublikamizda aholining sifatli baliq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini barqaror ta'minlash, ularning turmush tarzi va farovonlik darajasini oshirish maqsadida bir qancha dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning tashkiliy-texnologik jarayonlarini tizimli tashkil etish, baliq chavoqlarini takror ko'paytirish va ozuqa bazasini muhtakamlash, tabiiy suv havzalari va sun'iy ko'llarning resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, baliq yetishtirish jarayoniga ilmiy asoslangan usullarni va intensiv texnologiyalarni joriy etish maqsadida "Qoraqalpoq baliq sanoat" mas'uliyati cheklangan jamiyat faoliyati tashkil etilganligidan xabardormiz. Korxona yiliga 200 tonna baliq va 5 million dona baliq lichinkalari yetishtirish, hamda 5 ming tonna ozuq yem tayyorlash quvvatiga ega bo'lib, aholini baliq mahsulotlari bilan ta'minlashda juda muhimdir[1].

Adabiyotlar tahlili

Ushbu mavzu yuzasidan qilingan tadqiqotlar olimlar tomonidan umumiy va kam o'rganilgan bo'lsa ham, yozma tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari va o'sha davr olimlarining monografiyalari, jurnallarida ma'lum darajada yoritilgan, shuningdek, dala tadqiqotlari davomida axborotchilardan olingan ma'lumotlar ham o'z aksini topgan.

Jumladan, shimoliy Xorazm aholisi hayotida baliq ovlashning ahamiyati katta ekanligi haqida arab geograflari asarlarida ma'lumotlar bo'lib, xususan Ibn-Rost baliq ovlanadigan "Xolijon" hududi va u yerdan atrofidagi hududlarga tarqatilishi haqida aytib o'tgan.

Al-Istaxriy Amudaryoning quyi oqimi haqida xabar berar ekan: "Jayxun baliqchilari Xorazm ko'llarigacha yetib borgan"ligi haqida ma'lumotlar bergan.

O'zSSR Fanlar akademiyasining akademigi Y. G'ulomov "Xolijon" ko'li Mo'ynoq baliqchi tumanining hozirgi hudulariga to'g'ri kelishini ta'kidlab o'tgan [2, 120-121 c].

Yozma tarixiy manbalar, arxeologik va etnografik ma'lumotlarga ko'ra, qoraqalpoqlar va qozoqlar qadimdan yarim ko'chmanchi turmush tarzi va dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilikni o'zida mujassam etgan murakkab xo'jalik yaratgani haqida guvohlik beradi. XIX asrning birinchi yarmida baliqchilik bilan shug'ullanib kelgan aholilar asosan Mergenev, Terbenbes, Tazbesqum, Aqbetkey, Taylaqjegen, Qarabayli, Aqqala, Urge, Qarajar, Duzli, Mo'ynaq (To'qpaq-ata) orollari va boshqa mavzelarda joylashgan.

Shuningdek, Xiva arxividan Xiva xonligida baliqchilik va qoraqalpoq baliqchilarining rus baliqchilari bilan bo'lgan munosabatlariga oid 50 sahifaga yaqin hujjatlar o'rganilgan. Unda Xiva xonining Amudaryo bo'lim boshlig'i baliqchilik bilan shug'ullanuvchi fuqarolari haqidagi yozishmalar mavjud. Amudaryo bo'lim boshlig'i general-mayor Rezgenovning 1889 yil 24 fevralda Xiva xoniga yozgan xatidan baliqchilik va baliq savdosi bilan shug'ullanadigan Astraxan savdogari Mixail Petrovich Vorob'yevga Amudaryoda baliq ovlamoq uchun Oq qal'aning yonidan ruxsat berilganini, agar xohishi bo'lsa o'ziga tegishli yerlar (daryo, ko'llar)dan foydalanib baliq ushlash va ularni tuzlash kabi baliqchilik bilan shug'ullanishga ijaraga berishni taklif etganligi aniqlangan. Mazkur xatda ijraga qo'yishning xonlik xazinasini boyitishdagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan [3, 58-59 c].

XVIII-XIX asr birinchi yarmidagi qoraqalpoqlar tarixi bilan shug'ullangan S.Kamalov o'z asarlarida ushbu xalqning xo'jaligida dehqonchilik, sug'orish, chorvachilik, hunarmandchilik va baliqchilik katta ro'l o'ynaganligini ochib bergan [4, 8-115 c].

XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asrning boshlarida "Qoraqalpog'iston xo'jaligi" nomli jamoaviy monografiya ustida ish olib borilgan, uning 5 bo'limida tarix fanlari nomzodi A.Utemisov "Baliqchilik" haqida to'xtalib o'tgan [2, 9 c].

Yuqorida ta'kidlanganimizdek, hujjatlar baliqchilik qoraqalpoq xo'jaligining muhim bir sohasi ekanligi, ular Orol dengizi daryo va ko'l bo'ylarida baliqchilik bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi.

XX asrning 70 yillarida O'zbekiston FA Qoraqalpog'iston filialining tarixiy-etnografiya ekspeditsiyasi dala tadqiqotlari olib borilib, 1980 yilda nashr qilingan "Qoraqalpoqlar etnografiyasi" ocherkida mualliflarning ta'kidlashicha, "yarim o'troq turmush tarzi bilan uyg'unlashgan kompleks chorvachilik-dehqonchilik va baliq-ovchilik xo'jaligi qoraqalpoq xalqi uchun xos" bo'lganligini, "bu barqaror dehqonchilik rivojlana olmaydigan Sirdaryo va Amudaryo deltalarida hayot kechirish va xo'jalik yuritishning qiyinchiliklarini yengib o'tgan qoraqalpoq xalqiga xos xususiyatlardan biri ekanligini, xalqning xo'jalik faoliyatida, ular yashayotgan mintaqalardagi tabiiy va geografik sharoitlardan kelib chiqib baliqchilik mahsulotlariga ehtiyoji ko'proq bo'lgan", deb xulosa bergan mualliflar jamoasi[5, 117 c].

Yuqorida qayd etilgan arxiv hujjatlari va olimlarning tadqiqotlarida XIX asr ikkinchi yarmidan XX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrlarga ko'proq urg'u berilgan.

Mazkur maqola esa axborotchilardan olingan ma'lumotlar asosida dalillar orqali yoritib berilgan.

Metodlar

Maqola qoraqalpoq, o'zbek millatiga mansub axborotchilardan yozib olingan faktlar, dala tadqiqotlari davomida olingan fotosuratlar asosida ochib berishga harakat qilingan, hamda og'zaki suhbat, intervyu, qiyosiy tahlil va statistik ma'lumotlardan foydalanilgan.

Natijalar

Qoraqalpog'iston-O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren demokratik respublika hisoblanib, hududi 166,6 ming km.kv va tarkibida 16 tuman mavjud. 2024 yil 1 aprel holatiga ko'ra doimiy aholi soni respublikada jami 2008781, erkaklar-1009021, ayollar-999760 kishini, shundan shahar aholisi jami - 981173, qishloq aholisi esa -1027608 kishini tashkil qilmoqda.

Respublika hududida yashovchi qoraqalpoqlar, o'zbeklar, turkmanlar, qozoqlar o'zlarining an'anaviy baliqchilik xo'jaligini saqlab

qolganlar. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Ellikqal'a tumani, Qilchinoq OFY da yashovchi, 1980 yilda tug'ilgan Karimboyev Otabek: "Biz yashayotgan hududda baliqchilik xo'jaligi saqlanib qolgan. Chunki otam Karimboyev Sultonboy (1948 yil tug'ilgan) bolaligidan baliq ovlashga mehr qo'ygan inson edi. U kishi Aqchako'l, Ko'kchako'l, Chiyaliko'l nomli tabiiy ko'llardan sazan, karas, lesh, laqqa, ilon baliq, belomur(sariq va qizil uchar), aq uchar kabi baliq turlarini to'r va sanchqi bilan juda ko'p ovlab kelardi. Bizda baliqni payshanba kuni iste'mol qilish kerak degan narsa yo'q, har doim otam **"oyda baliq-yilda kalla"** nomli gaplarini takrorlardi va bu hozirgacha mavjud. Chunki baliq halollik ramzi, u suvda yashaydi, insonlarga umr bag'ishlaydi," deb aytgan otasi haqidagi xotiralarini keltirib o'tdi [6, 2024 yil].

Qoraqalpoqlar hayotida baliqchilik muhim o'rin egallagan, Orolbo'yida yashagan barcha qo'ng'rot qabilalari, xususan, qo'ldayli, muyten, ashamayli, qiyat urug'lari qadimdan baliqchilik bilan shug'ullanib kelishgan.

Qoraqalpoqlar xo'jaligida baliqchilik, ayniqsa, Amudaryoning o'ng tomoni Rossiyaga qo'shilib Amudaryo bo'limi tashkil topganidan so'ng keng rivojlangan va baliq mahsulotiga bo'lgan talab ortgan. Bo'lim baliqchilar Mo'ynoq tumani hududlariga o'rnashib qolgan. Inqilobgacha bo'lgan yillari Mo'ynoq orolida 340 qoraqalpoq va qozoq, 160 rus xo'jaliklari; 1915 yilda Urgada 300 xo'jalik, Terbenbesda 80 xo'jalik, Qorateren orolida 45 xo'jalik, Qorao'zak bo'ylarida 150 qoraqalpoq va qozoq xo'jaligi yashagan [3, 58 6]. Qoraqalpoq millatining **"bessari"** urug'iga mansub axborotchi Angsat ag'a(1967 yil tug'ilgan) hozirgi paytda Mo'ynoq tumanida qozoq, qoraqalpoq, ural kazaklari aholisi yashashi, lekin rus oilalari faqatgina 7 yoki 8 tagina qolganini aytib, chunki Orol dengizi suvi kamayib, baliq ovlash pasayib ketishi oqibatida aholi ko'chib ketishgan. Shuning uchun ham Mo'ynoq aholisi kam tuman hisoblanadi, bugungi kunda baliqchilik xo'jaligi o'z ahamiyatini yo'qotgan, deya o'z ma'lumotlarini aytib berdi. Qachonlardir balig'i bilan mashhur bo'lgan Mo'ynoq tumanida Orol dengizi suvi qurigan qismidan barcha kemalar olib kelinib **"Kemalar qabristoni"** tashkil qilingan. Hozirda bu yerga Italiya, Fransiya, AQSH, Belorussiya va boshqa ko'plab mamlakatlardan turistlar keladi, hamda **"Aral teñizi taryxi"**

muzeyi tashkil qilingani, unda Orol dengizi tarixiga bag'ishlangan film va o'sha davrdagi baliqchilik, ishlab chiqarilgan xilma-xil konser-va mahsulotlari va Orol dengizining bugungi cho'l holati haqidagi ma'lumotlarini davom ettirdi [7, 2024 yil].

Qayd etib o'tish kerakki bugungi kunda Mo'ynoq o'rtacha aholi soni quyidagi ko'rsatkichga ega: 2022 yil 1 aprel holatiga ko'ra-33,1, 2023 yil 1 aprel holatiga-33,5, 2024 yil 1 aprel holatiga ko'ra esa 33,6 ming kishini tashkil etmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki Orol suv sathi pasayib ketishi oqibatida o'z hududini tashlab ketgan aholi sonida anchagina o'sish mavjud.

O'zbekistonda 1960 yillarga qadar baliqchilik faqat Orol dengizidagina mavjud edi, keyinchalik, Orol dengizidagi suv sathining kamayishi oqibatida suv unda baliqlar yashay olmaydigan darajada sho'rlangan. Natijada baliqchilik ko'l va irrigatsiya ehtiyojlariga mo'ljallangan suv omborlariga ko'chgan. 1960-1980 yillarda O'zbekistonda yangi tarmoq-sun'iy havzalarda baliq yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda hovuz baliqchiligi respubli-

zavodi jamoasiga berilgan. Mo'ynoq tumani-dagi **"Qizil baliqchi"** baliqchilik kolxozi a'zolari Qoraqalpog'iston ASSR Vazirlar Kengashi viloyat partiya qo'mitasiga "Qizil baliqchi" fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyati yo'nalis-hidagi o'zgarishlarni kuchaytirish masalasini hal etish iltimosi bilan qilgan murojaatiga ko'-ra Taxtako'pir tumaniga ko'chirishni so'ragan. Ushbu muammoning paydo bo'lishiga asosiy sabablar so'nggi yillarda baliq yetishtirishning keskin kamayishi va shunga mos ravishda kolxozchilarning moliyaviy ahvolidan yomonlashuvi bo'lgan. Agar 1961 yilgacha kolxozda har yili 20 ming sentnerdan ortiq baliq yetishtirilgan va baliqchilikda 160-170 nafar baliqchi ishlagan va bir baliqchiga o'rtacha 120-130 sentnerdan baliq ovlangan bo'lsa, 1966 yilda kolxoz atigi 7,6 ming sentner baliq yetishtirib sotgan, hamda baliqchilar soni sezilarli darajada kamaygan va bir baliqchiga o'rtacha ov atigi 70 sentnerni tashkil etgan [9, 206-207 л].

1966 yil dekabr va 1967 yil yanvar-mart oylarida baliq ovlashning kamligi tufayli baliqchilarning o'rtacha daromadi oyiga atigi 6-7 rublni tashkil qilgan. Bu holat ko'plab kolxoz-



kamizning barcha viloyatlarida mavjud bo'lib, ular asosiy baliq ishlab chiqaruvchilar hisoblanadilar[8, 6 6].

Arxivdan olingan ma'lumotlarga qaraganda, O'zSSR baliqchilik boshqarmasi va oziq-ovqat sanoati xodimlari kasaba uyushmasi respublika qo'mitasi prezidiumining 1969 yil 30 oktabrdagi 26-sonli bayonnomasi bilan baliqchilik sanoati korxonalarining 3-chorak respublika musobaqa yakunlari natijasiga ko'ra 1969 yilda ikkinchi pul mukofoti Mo'ynoq konserva

chilarning kolxozdan tashqariga ruxsatsiz chiqib ketishiga sabab bo'lgan. "Qizil baliqchi" kolxozi viloyat markazi Mo'ynoqdan 200 km sharqda kichik Aqpetki orolida joylashgan edi. Viloyat partiya qo'mitasi va Qoraqalpog'iston ASSR Vazirlar Kengashi "Qizil baliqchi" kolxozi a'zolari umumiy yig'ilishining qarorlarini ko'rib chiqib, ularning sholizor hududiga ko'chirish haqidagi iltimosini qanoatlantirishga qaror qilgan. Taxtako'pir tumanidagi "Qorao'zak" sovxozini rivojlantirish, sovxoz kadrlar salohi-

yatini mustahkamlashga yordam bergan va kolxozchilarning moddiy, madaniy va maishiy ahvolini yaxshilashga yordam berilganligi haqidagi hujjatlar saqlanib qolingan[10, 33 л].

Demak bundan ko'rinib turibdiki, 50-60 yillardan boshlab Orol dengizi suvi sekin-astalik bilan kamayib borgan, bu esa qoraqalpoq xalqining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni axborotchi Allambergenov Gulmurod aka(1961 yil tug'ilgan) aholi 1961 yildan boshlab suvning kamayganligini bilishgan. 1994 yil akam Ibrayim bilan Mo'ynoq konserva zavodidan konserva olib Volgagrad,Qozog'istonga sotishga olib borganmiz, chunki yoshligimdan baliq ovlashga qiziqqanman. Shuningdek,Rossiya xalqi poytaxt Nukusni emas Mo'ynoqni juda yaxshi bilishgan. Inqilobdan keyin ochilgan bolalar uyini bizning baliqlar bilan boqishgan, deya o'zining qiziqarli ma'lumotlarini aytib berdi[11, 2024 yil].

Rossiyaga qo'shilishdan oldin Orol dengizining janubida baliq ovlash iste'mol xarakteriga ega bo'lib, aholi ibtidoiy baliq ovlash vositalaridan foydalangan holda baliq ovlashgan. Ta'kidlash kerakki Qoraqalpog'istonning shimolida joylashgan Orolning janubiy qismi butun Mo'ynoqni va respublika Taxtakopir tumanining g'arbiy qismini o'z ichiga olgan, uning maydoni 40800 km.kv bo'lgan va avtonom respublikaning 25% ni tashkil qilgan. Aholi daryolar va dengiz qirg'oqlarida baliq ovlash uchun uchta tishli **"shanshq"** nayzalarni tunda qayiqning orqa tomonida yoqilgan mash'ala nurlari yordamida ovlashgan.



Qishda esa ko'llarda **"ilme"**(**irg'aq**-Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani mahalliy aholi orasida nomlanishi) deb nomlangan asbob yordamida muz teshiklaridan baliqlarni ovlashgan, ya'ni o'tkir uchli uzun temirdan qilingan tayoq yordamida ehtiyotkorlik bilan o'tib ketayotgan baliqning tagiga olib kelinib tezlik bilan qorin qismiga ilmoqqa ilib, so'ngra muz ustiga chiqarishgan.

Shuningdek, sazan, barbel baliqarini ovlashda maxsus ilgakli **"qarmaq"**dan, sayoz suvlarda esa kichik jingil tayoqlaridan to'qilgan to'rdan foydalanishgan.

"Kershi" dastgohi uzun ustunlardan uchburchak yoki aylana shaklda yasalgan va unga to'r biriktirilgan, uning yordamida qarmoqqa ilingan katta baliqlarni olib chiqishda ishlatilgan[2, 121-122 c].





Axborotchi Yuldashev Bahodir (1974 yil tug'ilgan) Qoraqalpog'iston Respublikasi, Ellikqal'a tumanida joylashgan Aqchako'ldan, Qozoqdaryo, Ravshan, Ko'kdaryolardan sazan, ilon baliq va Balxash ko'lidan esa bakira baliqlarni **"atmaqarmaq"**, **"sho'lipi"**, **"qafas"** kabi asboblari yordamida ovlagan. Shuningdek, axborotchi Mo'ynoq tumanida ishlagan payti Lenin nomidan Mo'ynoq xalqiga tashakkurnoma kelgan ekan, sababi urushda askarlarga baliq yetkazib turgani uchun deb o'zining eshitgan va bilgan qiziqarli ma'lumotlarini aytib berdi [12, 2024 yil].

O'ziga to'q boylar savdo qiladigan asosiy baliq bozorlari Qo'ng'iro't, Chimboy, Qlich, Davqara va Xo'jaylida bo'lgan.

Amudaryo bo'limi tashkil etilgandan keyin podsho hukumati baliqchilik sanoatini o'z qo'lga olgan, qoraqalpoqlar, qozoqlar esa qayiq'larni ijaraga olib, baliq ovning teng yarmiga ishlab berishgan. Aholi orasida ochlik yillari boshlangan, bu haqda shoir Kunxo'ja quyidagi mazmunda she'r yozgan, ya'ni "bittagina taom bu baliq edi, idish-tovog'im qamishdan bo'lgan, har doim ochlikdan azob chekardim" deb o'z dardini bayon qilgan. Shoir inqilobgacha bo'lgan qiyinchiliklar haqida to'xtalib o'tgan [2, 126 c].

Xulosa qilib aytish mumkinki, qoraqalpoq xalq o'z tarixi davomida qanchalik ko'p qiyinchilik va mashaqqatlar ko'rmasin, an'anaviy baliqchilik xo'jaligini saqlab qolgan. Podsho hukumati yillarida iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan kechirgan bo'lsa, inqilobdan keyin ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida birmuncha ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

<https://uzreport.news/politics/i>

1. Шалекенов, У.Х. и др. Хозяйство Каракалпакии в XIX начале XX века. Т.1972. 132 с.
2. Жалилов, О. XIX-XX аср бошларидаги қорақалпоқлар тарихига оид муҳим ҳужжатлар. 1977. 150 б.
3. Камалов С.К. Каракалпаки в XVIII-XIX вв. Т., 1968. 327с.
4. Жданко Т.А., Камалов С.К. Этнография каракалпаков. XIX- начало XX века (Материалы и исследования) Т.; 1980. 202 с.
5. Dala yozuvi: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Ellikqal'a tumani, Qilchinqoq OFY, 2024 yil
6. Dala yozuvi: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus tumani, O'roqbolg'a MFY, 2024 yil
7. Мамадов Ф.К., Трояновская Р.А., Шагаева М.Э. Ҳовуз балиқчилиги: Ўқув қўлланма// -Тошкент. 2020 й. 164 б.
8. Ўзбекистон Миллий Архиви: Ф.837.О.41.д.1660. л. 206-207.
9. Ўзбекистон Миллий Архиви: Ф.837.О.41.д.1010. л.33.
10. Dala yozuvi: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Aydo'stko'l MFY, 2024 yil
11. Dala yozuvi: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Ellikqal'a tumani, Aqchako'l OFY 2024 yil